

**«O'zbekiston ipotekani qayta  
moliyalashtirish kompaniyasi»  
aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv  
Kengashining qarori bilan  
«TASDIQLANGAN»  
28 -noyabr 2023-yil**

**2024-yil uchun  
BIZNES-REJA**

## MUNDARIJA

<b>I BO'LIM. MAKROIQTISODIY MUHIT</b> .....	3
<b>1.1. Makroiqtisodiy sharh</b> .....	3
<b>II BO'LIM. ISHBILARMONLIK MUHITI</b> .....	5
<b>2.1. Bank sektori</b> .....	5
<b>2.2. Ipoteka sektori</b> .....	7
<b>2.3. O'zIQMK faoliyati</b> .....	7
<b>III BO'LIM. 2024 YIL UCHUN BIZNES-REJA</b> .....	11
<b>3.1. Asosiy taxminlar</b> .....	11
<b>3.2. Moliyaviy ko'rsatkichlar</b> .....	14
<b>3.3. Kredit berish</b> .....	16
<b>3.4. Investitsion operatsiyalar</b> .....	18
<b>3.5. Moliyalashtirish - Qarz mablag'lari</b> .....	19
<b>3.6. Moliyalashtirish - Obligatsiyalar</b> .....	20
<b>3.7. Kapital</b> .....	22
<b>3.8. Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish</b> .....	22
<b>3.9. Kadrlarni boshqarish</b> .....	23
<b>IV BO'LIM. OPERATSION XARAJATLAR</b> .....	24
<b>V BO'LIM. KAPITAL XARAJATLAR</b> .....	24

## I BO'LIM. MAKROIQTISODIY MUHIT

### 1.1. Makroiqtisodiy sharh

**YaIM<sup>1</sup>.** 2023-yil 9 oy yakunlari bo'yicha mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 750.9 trln. so'mni (63.8 mlrd. AQSh dollariga ekvivalent), yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,8% ni tashkil qilgan. Hisobot davrining YaIM shakllanishiga Xizmatlar (42%), Sanoat (24%), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (22%) jiddiy ta'sir ko'rsatdi, ayni paytda Qurilish (6%) va oziq-ovqatlar uchun Sof soliqlar (5%) eng kichik ta'sir ko'rsatdi. Keyingi to'rt yil ichida yuqorida ko'rsatilgan sektorlar bo'yicha yalpi qo'shimcha qiymat ulushi taxminan bir darajada bo'lgan, shuningdek Xizmatlar va Sanoat sektorida bu ulushning biroz ortishi kuzatilmoqda. Iqtisodiyot sektorlarining dinamikadagi o'sish sur'atlari 2020-yildagi pandemiyadan keyin barqaror tiklanish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

**1-jadval. 2018-2023-yillarda YaIM ko'rsatkichi o'zgarishining dinamikasi**

Indikator		2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil 9 oy	
YaIM	trln. so'm (\$ mlrd. ekv.)	406,7 (\$50,4)	529,4 (\$59,9)	602,2 (\$59,9)	738,4 (\$69,6)	888,3 (\$80,4)	750,9 (\$63,8)	
	solishtirma og'irlik (solish. og'ir.)	100%	100%	100%	100%	100%	100%	
	O'sish sur'ati (O'S), %	+5,1%	+5,7%	+1,9%	+7,4%	+5,7%	+5,8%	
VDS	Sanoat	trln. so'm	95,8	136,1	153,2	186,8	220,7	182,1
		solish. og'ir.	24%	26%	25%	25%	25%	24%
		O'S, %	+10,8%	+5,0%	+0,9%	+8,8%	+5,2%	+5,7%
	Qurilish	trln. so'm	22,1	30,6	37,5	45,6	55,5	45,9
		solish.og'ir.	5%	6%	6%	6%	6%	6%
		O'S, %	+14,3%	+22,9%	+9,5%	+6,8%	+6,6%	+5,6%
	Xizmatlar	trln. so'm	129,5	187,1	215,8	272,1	343,4	314,0
		solish.og'ir.	32%	35%	36%	37%	39%	42%
		O'S, %	+5,5%	+6,0%	+0,7%	+9,5%	+8,5%	+6,5%
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	trln. so'm	113,7	130,3	151,3	181,8	208,5	168,2
		solish.og'ir.	28%	25%	25%	25%	23%	22%
		O'S, %	+0,3%	+3,1%	+2,9%	+4,0%	+3,6%	+4,1%
	Oziq-ovqatlarga sof soliqlar	trln. so'm	45,6	45,3	44,4	52,0	60,3	40,6
		solish.og'ir.	11%	9%	7%	7%	7%	5%
		O'S, %	+5,9%	+4,7%	+1,6%	+4,6%	-0,8%	+7,7%
	Aholi boshiga YaIM	\$ ekv.	1529,2	1783,6	1749,4	1983,0	2256,1	1797,3
	USDUZS kursi	yillik o'rtacha	8069,0	8839,0	10055,8	10610,0	11046	11606

**Inflyatsiya<sup>2</sup>.** O'zbekistonda 2023-yil yanvar-iyun oylarida iste'mol narxlari indeksining (INI) yillik ko'rsatkich bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan darajasi 5,1% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 5,6% ga, nooziq-ovqat mahsulotlari uchun 4,8% ga va xizmatlar uchun 4,7% ga o'sishi kuzatilmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

(havola quyidagi manzilda: <https://stat.uz/ru/default/ezhekvtartal-nye-doklady/21517-2022>)

<sup>2,3</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

(havola quyidagi manzilda: <https://stat.uz/ru/default/ezhekvtartal-nye-doklady/21517-2022>)

## 2-jadval. 2018-2023-yillarda INI o'zgarishi dinamikasi

Indikator		2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil 9 oy *
INI	Jami o'sish sur'atlari (O'S), %	14,3%	15,2%	11,1%	9,98%	12,3%	5,1%
	Oziq-ovqat mahsulotlari	14,9%	18,6%	15,3%	13,0%	15,6%	5,6%
	Nooziq-ovqat mahsulotlari	12,5%	10,9%	8,8%	7,8%	10,7%	4,8%
	Xizmatlar	15,8%	15,2%	7,1%	7,7%	8,4%	4,7%

\* 2022 yil sentyabr oyiga kelib

Indeks darajasida savdo bo'yicha sherik mamlakatlarda, shuningdek, jahon narxlarida narxlarning ko'tarilishi natijasida import qilinayotgan inflyatsiya sezilarli bosim o'tkazmoqda.

## 3-jadval: 2018–2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi bilan eng katta savdo aylanmasiga ega bo'lgan mamlakatlarda INI o'zgarishi dinamikasi

Mamlakat	Manba	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil 9 oy
XXR	*	2,1%	4,5%	2,5%	0,9%	1,8%	0,0%
Rossiya Federatsiyasi	**	2,9%	3,0%	4,9%	6,7%	11,9%	5,2%
Qozog'iston	***	6,0%	5,2%	6,7%	8,4%	20,3%	11,8%
Turkiya	****	20,3%	11,8%	14,6%	36,1%	64,3%	61,5%
Koreya Respublikasi	*****	4,4%	4,8%	5,4%	2,5%	5,0%	3,7%
Qirg'iziston	*****	1,5%	1,1%	6,3%	11,9%	14,7%	9,6%
Germaniya	*****	3,8%	5,3%	5,8%	9,1%	8,1%	4,5%
Hindiston	*****	5,2%	9,6%	3,7%	5,6%	5,5%	4,7%
AQSh	*****	1,9%	2,3%	1,4%	7,0%	6,5%	3,7%

\*<http://www.stats.gov.cn/> | \*\*<https://rosstat.gov.ru/> | \*\*\*<https://stat.gov.kz/> | \*\*\*\*<https://data.tuik.gov.tr/> | \*\*\*\*\* <https://kosis.kr/> |  
\*\*\*\*\*<http://www.stat.kg/> | \*\*\*\*\*<https://www.destatis.de/> | \*\*\*\*\*<https://www.inflation.eu/>

**JST<sup>3</sup>.** 2023-yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra respublikaning tashqi savdo aylanmasi 44,8 milliard AQSh dollariga yetdi, bu 2022-yilning shu davriga nisbatan 8,8 milliard AQSh dollariga yoki 24,4 foizga o'sishni ko'rsatdi. JST ning umumiy hajmidan eksport 17,7 milliard AQSh dollarini tashkil qildi (2022-yil yanvar-sentyabr oylariga kelib 23,5 foizga o'sish qayd etildi) va import 27,0 milliard AQSh dollarini (21,2 foizga o'sishi) tashkil etdi. Natijada tashqi savdo aylanmasining manfiy saldosi 9,3 milliard AQSh dollarini tashkil qildi.

## 4-jadval. O'zbekiston Respublikasi bilan eng katta savdo aylanmasiga ega bo'lgan o'nta mamlakat (mlrd. AQSh dollari)

Mamlakat		2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil 9 oy
XXR	Eksport/Import	2,87/3,56	2,52/5,10	1,93/4,50	2,52/4,92	2,52/6,40	1,86/7,60
Rossiya Federatsiyasi	Eksport/Import	2,12/3,54	2,49/4,13	1,47/4,17	2,06/5,46	3,07/6,21	2,33/4,71
Qozog'iston	Eksport/Import	1,35/1,57	1,43/1,94	0,90/2,11	1,17/2,74	1,38/3,24	1,07/2,16
Turkiya	Eksport/Import	0,94/1,11	1,20/1,32	1,02/1,08	1,69/1,70	1,51/1,72	1,02/1,33
Koreya Respublikasi	Eksport/Import	0,11/2,05	0,09/2,66	0,04/2,10	0,05/1,84	0,05/2,29	0,03/1,67
Qirg'iziston	Eksport/Import	0,27/0,13	0,68/0,15	0,76/0,15	0,79/0,16	0,98/0,28	0,54/0,22
Germaniya	Eksport/Import	0,05/0,72	0,05/0,93	0,07/0,76	0,07/0,69	0,09/1,07	0,06/0,72
Turkmaniston	Eksport/Import	0,06/0,24	0,14/0,40	0,13/0,40	0,19/0,69	0,19/0,73	0,13/0,70
Afg'oniston	Eksport/Import	0,60/0,00	0,61/0,00	0,77/0,00	0,65/0,00	0,75/0,00	0,60/0,01
<b>Jami</b>	<b>Eksport/Import</b>	<b>8,37/12,92</b>	<b>9,21/16,63</b>	<b>7,09/15,27</b>	<b>9,19/18,2</b>	<b>10,54/21,94</b>	<b>7,64/19,12</b>

## II BO'LIM. ISHBILARMONLIK MUHITI

### 2.1. Bank sektori

2023-yil 01-oktyabr holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro'yxatga olingan tijorat banklari soni 35 tani tashkil etdi, shundan ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar 10 tani tashkil etdi.

Bank tizimining kapitallashuvi 2023-yil boshidan buyon 11,9 foizga o'sdi va 89,0 trln. so'm ni tashkil etdi.

2023-yilda bank tizimi iqtisodiyotda va davlatning tarkibiy islohotlarida hal qiluvchi rol o'ynashni davom ettirdi. Ipoteka bankining davlat aksiyalari xorijiy investorlarga sotildi. 2023-yilning sentyabr oyida bank tizimining iqtisodiyotdagi o'rni quyidagi jadvalda keltirilgan.

**5-jadval. Bank tizimining iqtisodiyotdagi roli<sup>4</sup>**

Ko'rsatkichlar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil 9 oy
YaIM, mlrd. so'm	602 193,0	734 587,7	888 341,7	750 925,7
Banklar aktivlari, mlrd. so'm	366 121,1	444 922,5	556 746,3	615 801,8
Aktivlarning YaIM ga nisbati, %	60,8	60,6	62,7	61,5*
Kredit qo'yilmalari, mlrd. so'm	276 974,8	326 385,6	390 048,9	451 610,3
Kreditlarning YaIM ga nisbati, %	46,0	44,4	43,9	45,1*
Depozitlar, mlrd. so'm	114 746,9	156 189,8	216 737,5	221 334,9
Depozitlarning YaIMga nisbati, %	19,1	21,3	24,4	22,1*
Kapital, mlrd. so'm	58 351,3	70 917,6	79 565,4	89 029,8
Kapitalning YaIM ga nisbati, %	9,7	9,7	9,0	8,9*

\*yillik qiymatga keltirilgan

Bank tizimida hali ham davlat ulushiga ega bo'lgan banklar muhim rol o'ynamoqda, va ularning asosiy ko'rsatkichlari boshqa banklar bilan taqqoslaganda quyidagi jadvalda keltirilgan.

**6-jadval. 2023-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra ikki guruhi tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot (trln. so'm)<sup>1</sup>**

Bankning nomi	Aktivlar		Kreditlar		Kapital		Depozitlar	
	miqdori	barchasidan % hisobidagi ulushi	miqdori	barchasidan % hisobidagi ulushi	miqdori	barchasidan % hisobidagi ulushi	miqdori	barchasidan % hisobidagi ulushi
Jami	615,8	100%	451,6	100%	89,0	100%	221,3	100%
Davlat ulushi ishtirokidagi banklar	422,1	69%	324,0	72%	58,8	66%	114,9	52%
Drugie banki	193,7	31%	127,6	28%	30,2	34%	106,4	48%

<sup>4</sup> 2023-yil yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

<sup>1</sup> 01.10.2023-yil holatiga tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar, [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

## 2.2. Ipoteka sektori

Mamlakatda ipoteka kreditlashga talabning yuqori darajasi saqlanib turibdi. So'nggi 30 yil ichida O'zbekiston aholisi 20 milliondan 36,0 mln. kishiga yoki 1,8 martaga o'sganini hisobga oladigan bo'lsak, bunday yuqori talabni uy-joyga muhtoj yosh aholi ta'minlab bermoqda. Shu bilan birga, mamlakat aholisining 57% mehnatga layoqatli yoshda, O'zbekiston aholisining 60% dan ortig'i 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolardir. Aholining o'sish sur'atlari saqlanadigan holda, shuningdek, eskirib borayotgan uy-joy fondini almashtirish zarurati davom etayotgan bir paytda, kelgusi 20 yil ichida qurilishni moliyalashtirish va shunga mos ravishda ipoteka kreditlashga bo'lgan talab juda yuqorigicha bo'lib qolaveradi.

Ipoteka kreditlash bozorida asosiy rol ni tijorat banklari, birinchi navbatda, ustav kapitalida davlat ulushi ustun bo'lgan banklar o'ynaydi. Tijorat banklarining 01.10.2023 yil holatiga ko'ra tijorat banklarning kredit qo'yilmalarining 451,6 trln. so'mga teng bo'lgan umumiy hajmidan ipoteka kreditlari hajmi 55,0 trln. so'mni yoki 12,2% ni tashkil qildi.<sup>2</sup>

**7-jadval. Ipoteka kreditlarining asosiy ko'rsatkichlari<sup>3</sup>**

Ko'rsatkichning nomi (trillion so'm)	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil 9 oy
<b>Berilgan ipoteka kreditlari hajmi</b>	<b>9,1</b>	<b>9,8</b>	<b>14,4</b>	<b>12,2</b>
birlamchi uy-joy bozori	8,8	7,4	10,8	7,1
ikkilamchi uy-joy bozori	0,3	2,4	3,6	5,1
<b>"Yangi tartib" dasturi bo'yicha</b>	<b>1,7</b>	<b>4,8</b>	<b>8,5</b>	<b>6,0</b>
<b>Banklarning o'z mablag'lari hisobiga</b>	<b>2,0</b>	<b>0,9</b>	<b>3,8</b>	<b>4,9</b>
<b>Kompaniya mablag'lari hisobiga (O'zIQMK)</b>	<b>0,06</b>	<b>2,0</b>	<b>0,2</b>	<b>1,3</b>
<b>Jami ipoteka kreditlari qoldig'i</b>	<b>28,3</b>	<b>35,8</b>	<b>46,4</b>	<b>55,0</b>

Banklar ipoteka portfelining YaIM ga nisbati 5,4% ni tashkil etadi (yillik qiymatga keltirilgan), bu esa 2022-yil oxiridagi 5,2 % ga nisbatan yuqoridir.

Ipoteka bozorining asosiy ishtirokchilari Ipoteka bank, Qishloq Qurilish Bank, O'MB, Uzsanoatqurilishbank, Xalq Bank, Asaka Bank va boshqa banklardir.

## 2.3. O'zIQMK faoliyati

**2022-yil.** 2022-yilda O'zbekiston ipotekasini qayta moliyalash kompaniyasi (keyingi matnda – Kompaniya, O'zIQMK) ichki normativ bazani shakllantirish va mustahkamlash, banklarning kreditlash shartlarini hamda boshqaruv organlari va tegishli qo'mitalar faoliyatini takomillashtirishda davom etdi.

2022-yil davomida kompaniya korporativ boshqaruv masalalariga katta e'tibor qaratishni davom ettirdi. O'zIQMK ning barcha boshqaruv organlari: Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv Kengashi va tegishli qo'mitalar hamda Ijroiya organning to'laqonli va sifatli faoliyati tashkil etildi.

2022-yil 29-iyun kuni Kompaniya Aksiyadorlarning Yillik Umumiy yig'ilishini o'tkazdi va unda 2021-yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatining umumiy natijalari, boshqaruv organlari

<sup>2</sup> 2023-yil 9 oy yakunlari bo'yicha SBU ipoteka kreditlarining sharhi, <https://cbu.uz/oz/press-center/reviews/>

<sup>3</sup> 2023-yil 9 oy yakunlari bo'yicha SBU ipoteka kreditlarining sharhi, <https://cbu.uz/oz/press-center/reviews/>

faoliyati, tashqi auditorlarning xulosasi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq yakuniy yillik yig'ilishda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

2022-yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlariga ko'ra Kompaniya aktivlari 2 065,7 mlrd. so'm, kapitali – 137,1 mlrd. so'm, majburiyatlari – 1 928,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Yil yakuniga ko'ra foyda 24,1 milliard so'mni tashkil qildi.

2023-yilning 9 oyi qayta moliyalashtirish faoliyatini davom ettirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik va hal qilinmagan masalalar bo'yicha tartiblovchi (regulyator) va hukumat bilan muloqotni davom ettirish bilan ifodalandi.

Ushbu davrda Kompaniyaning Kredit qo'mitasi tomonidan IMT uchun umumiy miqdori 799 mlrd. so'mlik maqbul ipoteka kreditlari bo'yicha 10 ta qayta moliyalashtirish kelishuvlari ma'qullandi.

Kompaniya 2022-yil oxiridan boshlab o'zi uchun yangi turdagi investitsiya vositalari - davlat qimmatli qog'ozlari (DQQ) bilan ishlay boshladi. Bo'sh mablag'larni qimmatli qog'ozlarga qo'yish bir qator afzalliklarga ega: 1) bugungi kunda DQQ bo'yicha daromadlilik bank depozit vositalariga nisbatan jozibadorroqdir; 2) O'zbekiston Markaziy banki tasnifiga ko'ra, ular yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritiladi, bu esa tartiblovchi tomonidan belgilangan likvidlik normativlarini bajarishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi; 3) DQQ bo'yicha daromadlarga soliq solinadi.

### **Muhim Loyihalar**

Debyutli korporativ obligatsiyalar. Kompaniya o'zining birinchi ta'minlanmagan korporativ obligatsiyalarini 3 yil muddatga xususiy joylashtirish orqali 19% bozor foiz stavkasi bilan muvaffaqiyatli chiqardi.

Obligatsiyalarni chiqarishdan oldin O'zIQMK 2023 yil iyul oyida o'zining korporativ obligatsiyalari va kapital bozori resurslariga bo'lgan talabni aniqlash uchun bir nechta bozor tadqiqotlarini o'tkazdi. Tadqiqot investorlarning talabi taklifdan ikki baravar yuqori ekanligini ko'rsatdi. So'rov o'tkazish va sheriklar bilan bir qator uchrashuvlarni o'tkazish natijasida obligatsiyalar xaridorlari (fondlar va banklar) va qarz oluvchilarning (IMT) potensial ro'yxati aniqlandi. Debyut obligatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazish va chiqarish 2023 yil sentyabr oyida yakunlandi. Obligatsiyalarni joylashtirish va qayta moliyalashtirish 2023 yil oktyabr oyining o'rtalarida joylashtirilgan. Bozorga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun qayta moliyalashtirish 1% miqdorda minimal standart marjani qo'shish yo'li bilan amalga oshirildi.

AT tizimi. 2023-yilning birinchi choragida Kompaniya Kiberxavfsizlik markazi va yangi hisobga olish AT-tizimni sotib olish uchun Davlat tekshiruvlar markazidan rozilik oldi. Keyinchalik O'zIQMK qonun hujjatlari talablariga muvofiq tender e'lon qildi. Tender jarayoni 2023-yilning ikkinchi choragida yakunlandi va O'zIQMK AT-tizimining ta'minotchisi sifatida GNI Software Ozarbayjon kompaniyasini tanladi. 2023-yilning iyul oyida ta'minotchi bilan shartnoma imzolandi. Bosh direktor AT-tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini boshlash uchun tegishli almashtirishlar bilan ishchi guruh tuzdi. 2023 yil avgust oyida GNI jamoasi O'zIQMK biznes jarayonlarini muhokama qilish va texnik topshiriqlarni ishlab chiqishni boshlash uchun ikki hafta davomida Toshkentga tashrif qildi. Hozirgi vaqtda vendor tomonidan muhokamaning yakuniy bosqichida bo'lgan texnik topshiriqlar loyahasini ishlab chiqdi. Bundan tashqari, O'zIQMK AT-tizimni joriy etishni muvofiqlashtiruvchi malakali biznes-tahlilchini jalb qildi.

Elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimi. Kompaniya o'z tizimining ishlab chiquvchisi EHA bilan ishlashni yakunladi. Yaqinda jalb qilingan biznes-tahlilchi vendor bilan birgalikda ishlab chiqilgan tizimning kamchiliklarini tahlil qildi. Natijada, takomillashtirishni talab qiladigan bir nechta sohalar aniqlandi. Ishlab chiquvchi va biznes-tahlilchi O'zIQMK jamoasi bilan birgalikda takomillashtirish ustida ishladi va loyihani 2023-yilning uchinchi choragida yakunladi. Qo'shimcha shartnoma shartlariga ko'ra, ishlab chiquvchi EHA tizimini takomillashtirish bo'yicha bundan keyingi ishlarni amalga oshiradi.

Xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish. 2023-yilda O'zIQMK Kuzatuv Kengashining tavsiyalariga muvofiq xatarlarni boshqarish bo'yicha ichki siyosatlarni va Kompaniya aktivlari va majburiyatlarini boshqarish modelini tahlil qilish uchun Frankfurt maktabining tavakkalchilik bo'yicha maslahatchisini jalb qildi. Kompaniya 2023-yilning ikkinchi choragida Frankfurt maktabining tavakkalchilik bo'yicha maslahatchisi bilan ishlashni yakunladi. O'zIQMK jamoasi yangi konsepsiyalar va yondashuvlar bilan xatarlarni boshqarish bo'yicha yangi siyosatni, va aynan: Xatarlarni boshqarish tizimi to'g'risidagi siyosat, Likvidlik xatarini boshqarish siyosati, Bozor xatarlarini boshqarish siyosati, Aktivlar va passivlarni boshqarish siyosati va KUAP to'g'risidagi Nizom ishlab chiqdi va tasdiqladi. Barcha yangi hujjatlar ichki jihatdan uyg'unlashtirildi va eng yaxshi xalqaro amaliyotga moslashtirildi.

Ustav kapitalining ko'payishi. 2023-yil may oyida aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda 2022-yilda moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari, boshqaruv organlari faoliyati, tashqi auditorning xulosasi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq yakuniy yillik yig'ilishda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan boshqa masalalar ko'rib chiqildi. Ushbu yig'ilishda, boshqa qarorlar qatorida, kompaniyaning 2022-yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga ko'ra olingan sof foydaning bir qismini qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni mavjud aksiyadorlar o'rtasida tarqatish yo'li bilan taqsimlashga qaror qilindi. Chiqarilgan Aksiyalar miqdori 20 567 500 000 so'mni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalarini aralashtirish. 2022-yil oxirida OTB va O'zIQMK O'zbekiston Ipoteka bozorini rivojlantirish dasturi doirasida Loyiha bitimini imzoladilar. Keyingi qadam sifatida Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va O'zIQMK tomonidan 150 million AQSh dollari miqdorida subordinatsiyalangan kredit shartnomasi imzolandi. 2023 yilda Kompaniya ushbu resurslardan foydalanishni boshladi, ularning foydalanilmagan qoldig'i 2023 yil sentyabr oyi oxirida 83 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bundan tashqari, Kompaniya mahalliy kapital bozorining resurslarini yuqori bozor narxlarida jalb qildi. OTB ning uzoq muddatli imtiyozli mablag'larining cheklanganligini hisobga olib, O'zIQMK Kompaniyaning likvidligi va bozor xatarlarini kamaytirish maqsadida 20 yillik imtiyozli kreditni o'rta muddatli bozor resurslari bilan aralashtirish konsepsiyasini ilgari surdi. O'zIQMK jamoasi aralashtirish konsepsiyasi bo'yicha kelishuvga erishish maqsadida OTB va IMV bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi. 2023-yil sentyabr oyi holatiga ko'ra OTB va IMV Kompaniyaning moliyalashtirish manbalarini aralashtirish tashabbusini ko'rib chiqishning so'nggi bosqichiga kelgan.

Hisobot davrida O'zIQMK rahbariyati boshqa loyihalar bo'yicha ishlarni davom ettirdi, shu jumladan ustav kapitalini 1 trln. so'mgacha oshirdi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda garov kabi vositani joriy etish jarayonida faol ishtirok etdi, ichki me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirishni davom ettirdi va h.k.

## **Kompaniyaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari**

Quyida Kompaniyaning 2023-yildagi **moliyaviy holatining** asosiy indkatorlari keltirilgan:

- Banklardagi joriy hisobvaraqlar, banklardagi depozitlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha qoldiqlar 2022-yilga nisbatan 11% ga yuqori;
- Qayta moliyalashtirish bo'yicha kredit portfeli 2022-yilga nisbatan 65% ga o'sishni namoyish qiladi;
- Boshqa aktivlar ishlab chiqish va joriy etish jarayonida bo'lgan yangi hisobga olish AT-tizimi bo'yicha oldindan to'lov qilinishi tufayli ko'payadi;
- Olingan kreditlarning 2022-yil oxiriga nisbatan 58 foizga oshishi kutilmoqda. Kredit portfelining o'sishi olingan qarz mablag'larining tegishli o'sishiga olib keladi, chunki Kompaniya kredit faoliyatiga muvofiq moliyalashtirishni jalb qiladi;
- 2023-yilda kompaniya 140 milliard so'm miqdorida obligatsiyalarning birinchi emissiyasini amalga oshirdi, bu esa ushbu balans qismining 100% ga ortishiga olib keldi%;

### 8-jadval. 2023-yildagi moliyaviy ahvol

Moliyaviy ahvol (milliard so'm)				
KO'RSATKICHLAR	2021-	2022-	2023-	Farqi
	Fakt	Fakt	Bashorat	%
<b>AKTIVLAR</b>				
Banklardagi mablag'lar, depozitlar va investitsiyalar	111	130	144	11%
Qayta moliyalashtirish uchun kreditlar	1,149	1,904	3,141	65%
To'lash uchun hisoblab yozilgan foizlar	19	30	126	321%
Boshqa aktivlar	2	2	7	227%
<b>JAMI AKTIVLAR</b>	<b>1,281</b>	<b>2,066</b>	<b>3,419</b>	<b>66%</b>
<b>MAJBURIYATLAR</b>				
Olingan kreditlar	1,149	1,904	3,002	58%
Chiqarilgan obligatsiyalar	-	-	140	-
To'lash uchun hisoblab yozilgan foizlar	17	24	114	369%
Boshqa majburiyatlar	1	1	1	54%
<b>JAMI MAJBURIYATLAR</b>	<b>1,166</b>	<b>1,929</b>	<b>3,257</b>	<b>69%</b>
KAPITAL	114	137	162	18%
<b>JAMI KAPITAL VA MAJBURIYATLAR</b>	<b>1,281</b>	<b>2,066</b>	<b>3,419</b>	<b>66%</b>
<b>KOEFFITSIENTLAR</b>				
Aktivlar rentabelligi (ROA)	1.5%	1.4%	1.0%	
Kapital rentabelligi (ROE)	12.8%	19.2%	18.5%	
Xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR)	25.8%	20.2%	26.3%	
Sof foiz marjasi (NIM)	2.7%	1.9%	1.7%	

Quyida Kompaniyaning 2023 yildagi **foyda va zararlarining** asosiy indikatorlari keltirilgan:

- Umumiy foizli daromad 2022-yilga nisbatan 56% ga oshadi, va bu asosan kredit portfelining o'sishi bilan bog'liq;
- Baholash bo'yicha foizli xarajatlar, asosan, qarz olish ko'payishi hisobiga, 57% ga oshadi;
- Sof foizli daromad 2022-yilga nisbatan 47% ga yuqori bo'ladi;
- Sof foizsiz xarajatlar 3 mlrd so'mni tashkil etadi. O'sish OTB ning yangi kredit liniyasi bo'yicha hisoblangan majburiyat to'lovi bilan bog'liq;

- Jami operatsion xarajatlar 2022-yilga nisbatan 62% ga yuqori bo'ladi. Xarajatlar o'sishining sabablari quyidagicha:
  - 2023-yilning boshida xodimlar sonini 14 kishidan 2023 yilning oxiriga kelib 26 kishigacha ko'paytirish hisobiga, xodimlar uchun xarajatlar 8,5 mlrd. so'mni tashkil qiladi va bu 2022 yildagi 5,4 mlrd. so'mga nisbatan 56% yuqoridir;
  - Ijara va xizmat ko'rsatish uchun xarajatlar 0,9 mlrd. so'mga baholanib, bu 2022-yildagi 0,7 mlrd. so'mga nisbatan 35% ga ko'pdir. Bu ko'rsatkichning o'sishi xodimlar soni ko'payganligi sababli yangi binolarni ijaraga olish bilan bog'liq.
  - Boshqa ma'muriy xarajatlar 0,6 mlrd. so'mga nisbatan 1,3 mlrd. so'm miqdorda baholanadi. Bunday jiddiy o'sish asosan audit uchun xarajatlar bilan bog'liq (IFRS bo'yicha hisoblash usulini qo'llash munosabati bilan 2022 va 2023 yillar uchun hisoblangan).
  - Amortizatsiya uchun xarajatlar 0,2 mlrd. so'mga nisbatan, 0,4 mlrd. so'm miqdorda bo'lishi kutilmoqda (asosan, xodimlar soni ko'payganligi uchun kerakli xaridlar (kompyuterlar, mebel va h.k.) qilinganligi sababli);
- Soliq solingandan keyingi foyda 28 mlrd. so'mga baholanmoqda, bu 2022-yildagi 24-milliard so'mdan 14% ko'pdir. Sof foydaning biroz o'sishi asosan 2023-yilning ikkinchi choragida kreditlash faoliyatining faollashuvi bilan bog'liq. Kechikish kredit shartnomasi faqat 2023 yil boshida imzolanganligi bilan bog'liq.

### 9-jadval. 2023-yilda ko'rilgan foyda va zarar

Foyda va zarar (milliard so'm)				
KO'RSATKICHLAR	2021	2022	2023	Farqi
	Fakt	Fakt	Bashorat	%
Foizli daromad	83	202	315	56%
Foizli xarajat	(61)	(171)	(269)	57%
<b>Sof foizli foyda</b>	<b>22</b>	<b>31</b>	<b>46</b>	<b>47%</b>
Sof foizli daromadlar/(zararlar)	(2)	4	(3)	(170%)
<b>Operatsion daromad</b>	<b>20</b>	<b>35</b>	<b>43</b>	<b>24%</b>
Operatsion xarajatlar	(5)	(7)	(11)	62%
<b>Zaxiragacha bo'lgan foyda</b>	<b>15</b>	<b>28</b>	<b>32</b>	<b>15%</b>
Ehtimoliy zararlar uchun zaxiralar	-	-	(1)	-
<b>Soliqlargacha bo'lgan foyda</b>	<b>15</b>	<b>28</b>	<b>31</b>	<b>12%</b>
Daromad solig'i	(2)	(4)	(3)	(5%)
<b>Sof foyda</b>	<b>13</b>	<b>24</b>	<b>28</b>	<b>14%</b>

## III BO'LIM. 2024 YIL UCHUN BIZNES-REJA

### 3.1. Asosiy taxminlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2023 y. PF-51-sonli farmoni "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan, ipoteka bozorini uzoq muddatli resurslar bilan ta'minlash maqsadida 2023-yilda jami 10 trln. so'mdan ortiq ipoteka kreditlarini taqdim etish rejalashtirilgan.

2023-yilning 9 oyi ichida O'zbekiston bank sektori tomonidan 12,2 trln. so'm miqdorida ipoteka kreditlari berildi (2022-yilning mos davrida - 10,3 trln. so'mga nisbatan). 2022-yil 9 oyida berilgan 5,9 trln. so'mga nisbatan (kreditlar umumiy hajmining 57%) 2023-yilning mos davrida byudjet dasturlari doirasida 6,0 trln. so'm (kreditlar umumiy hajmining 49%) miqdorida ipoteka kreditlari berildi<sup>7</sup>.

Hukumatning uy-joylarni moliyalashtirishni oshirishni qo'llab - quvvatlashga qaratilgan doimiy harakatlariga qaramay, tijorat banklari quyidagi muammolarga duch kelishi davom etmoqda:

- uzoq muddatli va qulay moliyalashtirishning mavjud emasligi va shu sababli banklar foizli xatar ostida qolishi;
- daromadi va uy-joy bozorlari turli bo'lgan guruhlariga mansub aholi qatlamlari uchun moslashtirilgan ipoteka mahsulotining mavjud emasligi;
- uy-joyni moliyalashtirish bo'yicha maqsadli/muvofiqlashtirilgan siyosat yo'qligi va uy-joylar narxlari keskin ko'tarilib ketishi.

Shu bilan 2023-yilda O'zIQMK quyidagi qiyinchiliklarga duch keldi:

- Prezident Farmoni yoki Vazirlar Mahkamasining qarori zarurligi va bu masala tegishli banklarning kuzatuv kengashlari tomonidan ko'rib chiqilayotgan vaqtda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga va Davlat ulushi mavjud banklarga Kompaniyaning ustav kapitaliga kerakli mablag'larni kiritishga ruxsat beradigan ushbu hujjatlar mavjud emasligi Kompaniyaning aksiyadorlar kapitalini biznes-rejada rejalashtirilgan muddatlarda, birinchi chorakning oxiriga qadar 1 200 mlrd. so'mgacha oshirish to'xtab qolishi. Lekin ta'kidlash lozimki, banklar oldin ham bundan manfaatdor ekanliklarini bayon qilganlar va Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan uchrashuvda qo'shimcha kapital bilan ta'minlash yuzasidan kelishib oldilar.
- Davom etayotgan global va mintaqaviy geosiyosiy voqealar natijasida O'zbekiston Markaziy bankining asosiy stavkasi 2022-yilda 14% ga teng yuqori darajada saqlanib qoldi, shuningdek, milliy valyutaning kuchli o'zgaruvchanligi va xalqaro kapital bozorlarida hukumat kotirovkalarining keskin pasayishi kuzatildi.

Shunga qaramay, Kompaniya mahalliy kapital bozorida o'rta muddatli resurslarni jalb qilishga, so'ng esa ularni tijorat banklariga bozorga yo'naltirilgan ipoteka kreditlarini moliyalashtirish uchun uzoqroq muddatga taqdim etishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, O'zIQMK 2023-yilga rejalashtirilgan bir qator loyihalarni muvaffaqiyatli ishga tushirdi va yakunladi. Kompaniyada uni rivojlantirishning hozirgi rivojlanish tendensiyasi 2024-yilda ham saqlanib qolishini va joriy loyihalar yakunlanishini, shuningdek qator yangi loyihalar samarali davom etishini kutmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan shartlar va omillarga asoslanib, kompaniya 2024-yil uchun biznes-rejani tayyorlashda quyidagi **asosiy taxminlarni** qabul qildi:

1. Ishbilarmonlik muhiti. Makroiqtisodiy muhit va bank sektori barqaror bo'lib, hozirgi ijobiy rivojlanish tendensiyalarini saqlab qoladilar, deb taxmin qilinadi. 2024 yilda YaIM 5,5% o'sishini ko'rsatadi, inflyatsiya, O'zbekiston Markaziy banki taxminlariga ko'ra, 8-9% ga pasayadi. Bunday ijobiy o'zgarishlar 2024-yil oxiriga qadar bank sektorida

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Markaziy bankining ipoteka kreditlariga oid 2023-yil 9 oyi yakunlari bo'yicha: [https://cbu.uz/oz/press\\_center/reviews/](https://cbu.uz/oz/press_center/reviews/)

likvidlikni asta-sekin yaxshilashi va bu Markaziy bank faoliyatiga samara berishi kutilmoqda. Natijada O'zbekiston Markaziy bankining asosiy stavkasi 11-13% gacha pasaytirilishi mumkin.

2. Kapitalni ko'paytirish. O'zIQMK 2024-yilning birinchi yarim yilligida o'z ustav kapitalini qariyb 0,9 trln. so'mgacha oshiradi. Bu belgilangan muddatlarda yoki rejalashtirilgan miqdorda sodir bo'lmasligi xavfi mavjud. Kapitalning o'sishi Kompaniyaga o'z kapitali doirasida obligatsiyalar chiqarishni davom ettirishga imkon beradi. Agar kapitalni ko'paytirish rejasi bajarilmasa, Kompaniya darhol o'z faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun muqobil moliyalashtirish manbalarini izlashi kerak bo'ladi. Ularga davlat resurslari yoki, kamroq miqdorda, MFI resurslari kirishi mumkin.
3. Investitsion faoliyat. O'zIQMK ichki siyosatiga ko'ra, aksiyadorlik kapitali Kompaniyaning qayta moliyalash faoliyatida foydalanish uchun mo'ljallanmagan, aksincha, davlat obligatsiyalari yoki pul bozori vositalariga investitsiya qilinadi.
4. Moliyalashtirish. Kapital oshgandan so'ng, Kompaniya bir qator obligatsiyalar turkumlarini, shu jumladan oddiy va "yashil"/ijtimoiy obligatsiyalarni chiqarishi mumkin bo'ladi. O'zIQMK tomonidan Kompaniyaning operatsiyalari OTB mablag'lari bilan aralashtirilgan kapital bozori resurslari hisobiga qo'llab-quvvatlanishi taxmin qilinmoqda. Kompaniya mustaqil ekspertlar tomonidan "yashil" deb tasniflanishi mumkin bo'lgan obligatsiyalarni chiqarishni rejalashtirmoqda. Ushbu tranzaksiya Kompaniyaning korporativ imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, "yashil" iqtisodiyotga hissa qo'shishga va keyinchalik tegishli qonunchilikni ishlab chiqishga yordam beradi.
5. Xalqaro moliya institutlarining (XMI) resurslari. O'zIQMK Xalqaro moliya korporatsiyasidan (IFC) mahalliy valyutada moliyalashtirishni rejalashtirmoqda. Bitim kredit yoki obligatsiya shaklida bo'ladi va quyidagi shartlarga ega bo'ladi: (1) uch yillik moliyalashtirish va bir martalik qoplash; (2) yana uch yilga uzaytirish imkoniyati; (3) bir vaqtda ham IFC ro'yxatida, ham O'zIQMK IMT ro'yxatid mavjud bo'lgan tijorat banklarini moliyalashtirish; 4) mablag'lar qiymati ular olingan vaqtda bozor narxiga muvofiq belgilanadi. O'zIQMK tomonidan moliyalashtirish bozor uchun maqbul bo'lib qolishini ta'minlash uchun mablag'larning qiymati raqobatbardosh bo'lishi kutilmoqda.
6. Moliyalashtirish manbalarini aralashtirish. Kompaniya bozorga yo'naltirilgan operatsiyalarga o'tishi uchun bozori resurslarini OTB dan olingan resurslar bilan aralashtirishga OTB va IMV dan rozilik olishni taxmin qilmoqda. O'zIQMK jamoasi imtiyozli uzoq muddatli resurslarni o'rta muddatli bozor fondlari bilan aralashtirish bilan bog'liq mumkin bo'lgan likvidlik va foiz stavkalarini o'rganish uchun aralashtirish sxemasining davomiyligini tahlil qildi. Modellashtirish konsepsiyaning hayotiyligini namoyish etdi. Shunday qilib, resurslarni aralashtirish Kompaniyaga IMT ga bozordan past foiz stavkalari va uzoq muddatli gibril resurslar bilan ta'minlash uchun OTB resurslaridan foydalanishni kengaytirish imkoniyatini beradi, bu esa xavf-xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.
7. Aralash resurslardan foydalangan holda qayta moliyalashtirish. O'zIQMK yangi mahsulot banklar uchun dolzarb va faqat OTB tomonidan taqdim etiladigan resurslardan afzalroq bo'ladi, deb taxmin qiladi. Yangi mahsulot stavkasi aralash resurslar qiymati va O'zIQMK mukofoti xavfini hisobga olgan holda hisoblab chiqilgan.

8. AT-tizimi. Kompaniya avtomatlashtirilgan AT-tizimni 2024 yil avgustgacha to'liq joriy etishni rejalashtirmoqda. Texnik xususiyatlar va dasturiy ta'minotning o'zi buxgalteriya hisobi, g'aznachilik, hisobot va qayta moliyalash modullarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, O'zIQMK yangi serverlarni sotib olish va zaxira nusxa ko'chirishning mustaqil va xavfsiz vositalarini yaratish orqali o'zining AT-infratuzilmasini kengaytirishni davom ettiradi.

### 3.2. Moliyaviy ko'rsatkichlar

**10-jadval. 2024-yil uchun moliyaviy ahvol prognozi**

Moliyaviy ahvol (milliard so'm)			
KO'RSATKICHLAR	2023	2024	Farq
	Bashorat	Reja	%
<b>AKTIVLAR</b>			
Banklardagi mablag'lar, depozitlar va investitsiyalar	144	909	530%
Qayta moliyalashtirish uchun kreditlar	3,141	4,267	36%
To'lash uchun hisoblab yozilgan foizlar	126	178	41%
Boshqa aktivlar	7	15	119%
<b>JAMI AKTIVLAR</b>	<b>3,419</b>	<b>5,370</b>	<b>57%</b>
<b>MAJBURIYATLAR</b>			
Olingan kreditlar	3,002	3,682	23%
Chiqarilgan obligatsiyalar	140	590	321%
To'lash uchun hisoblab yozilgan foizlar	114	148	30%
Boshqa majburiyatlar	1	1	13%
<b>JAMI MAJBURIYATLAR</b>	<b>3,257</b>	<b>4,420</b>	<b>36%</b>
KAPITAL	162	949	485%
<b>JAMI KAPITAL VA MAJBURIYATLAR</b>	<b>3,419</b>	<b>5,370</b>	<b>57%</b>
<b>KOEFFITSIENTLAR</b>			
Aktivlar rentabelligi (ROA)	1.0%	1.6%	
Kapital rentabelligi (ROE)	18.5%	13.0%	
Xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR)	26.3%	25.3%	
Sof foizli marja (NIM)	1.7%	2.7%	

Quyida Kompaniyaning 2024-yilga rejalashtirilgan **moliyaviy holatining** asosiy indikatorlari keltirilgan:

- Banklardagi joriy hisobvaraqlar, banklardagi depozitlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha qoldiqlar, prognozlarga ko'ra, kapital quyilishi hisobiga 2023 yilga nisbatan ancha yuqori bo'ladi;
- Qayta moliyalash kreditlari qulay ishbilarmonlik muhitini hisobga olgan holda, 2023 yilga nisbatan 36% ga o'sishi prognoz qilinmoqda.
- Yangi hisobga olish AT-tizimini ishga tushirish va qo'shimcha aktivlarni sotib olish hisobiga asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning ko'payishi evaziga boshqa aktivlar ko'payadi;

- Prognozlar bo'yicha, OTB 2 kredit liniyasi bo'yicha mablag'larni va XMI bilan kutilayotgan bitimni hisobga olgan holda, olingan kreditlar 2023-yilning oxiriga nisbatan, 23% ga o'sadi;
- 2024-yilda Kompaniya obligatsiyalarni chiqarish bo'yicha o'z faoliyatini davom ettiradi va qo'shimcha ravishda qIMTat qog'ozlarning bir necha emissiyasini chiqarishni rejalashtirmoqda;

### 11-jadval. 2024 yil uchun daromad va zararlar prognozi

Daromad va zararlar (milliard so'm)			
KO'RSATKICHLAR	2023	2024	Farq
	Bashorat	Reja	%
Foizli daromadlar	315	609	94%
Foizli xarajatlar	(269)	(493)	83%
<b>Sof foizli daromadlar</b>	<b>46</b>	<b>116</b>	<b>154%</b>
Sof foizsiz daromadlar/(zararlar)	(3)	(5)	111%
<b>Operatsion daromadlar</b>	<b>43</b>	<b>111</b>	<b>156%</b>
Operatsion xarajatlar	(11)	(28)	147%
<b>Zaxiragacha bo'lgan daromadlar</b>	<b>32</b>	<b>83</b>	<b>160%</b>
Ehtimoliy zararlar uchun zaxiralar	(1)	(3)	345%
<b>Soliqlargacha bo'lgan daromad</b>	<b>31</b>	<b>79</b>	<b>155%</b>
Daromad solig'i	(3)	(7)	102%
<b>Sof foyda</b>	<b>28</b>	<b>72</b>	<b>162%</b>

Quyida Kompaniyaning 2024-yilga rejalashtirilgan **daromadlari va zararlarining** asosiy indikatorlari keltirilgan:

- Jami foizli daromadlar 2023-yilga nisbatan 94% ga oshadi, va bu asosan kredit portfelining o'sishi va investitsion faoliyat kuchayishi bilan bog'liq.
- Jami bo'lib, foizli xarajatlar 83% ga oshadi, bu asosan OTB kredit liniyasi bo'yicha bundan keyin ham mablag' olish va XMI resurslarini jalb qilish natijasida qarzlarning ko'payishi hisobiga amalga oshadi.
- Foizli daromad yanada tez o'sishi hisobiga sof foizli daromad 2023-yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi, chunki Kompaniya jalb qilingan kapital bo'yicha xarajatlarni o'z zimtasiga olmaydi.
- Sof foizsiz xarajatlar ham 2023-yilga nisbatan oshadi. O'sish OTB 2 kredit liniyasi bo'yicha hisoblangan majburiyatlar uchun komissiya va IFC dan yangi kredit bo'yicha to'lovlar bilan bog'liq.
- Umumiy operatsion xarajatlar 2023-yilga nisbatan yuqori bo'ladi. Xarajatlar sezilarli darajada oshishining sabablari quyidagilardan iborat:
  - Xodimlar soni 2024-yilning boshida 24 kishidan 2024-yilning oxirida 30 kishigacha oshirish hisobiga xodimlar uchun xarajatlar 16,8 milliard so'mni tashkil etadi, va bu 2023-yildagi 8,5 mlrd. so'mdan 97% ga ko'pdir;
  - Asosiy vositalarni ijaraga berish va saqlash xarajatlari 1,3 mlrd. so'm miqdorda byudjetga kiritilgan bo'lib, bu 2023-yildagi 0,9 mlrd. so'mdan 41% ga yuqoridir. O'sish xodimlar sonini rejali oshirish munosabati bilan qo'shimcha binolarni ijaraga olish va tutib turish bilan bog'liq;
  - Vakillik xarajatlari va xayriya xarajatlari 1,0 mlrd. so'mni tashkil etadi, bu esa 2023 yildagi ko'rsatkichga nisbatan ancha yuqoridir. Kompaniya O'zIQMK

ning 5 yillik yubileyi bilan bog'liq bir nechta yirik tadbirlarni byudjetga kiritdi. Biroq, Rahbariyat moliyaviy natijalarga ta'sirini minimallashtirish uchun ushbu xarajatlar qismini qat'iy nazorat qiladi.

- Boshqa umumiy ma'muriy xarajatlar byudjetga 2023 yildagi 1,3 mlrd. so'mga nisbatan, 6,5 milliard so'm miqdorda kiritildi. Sezilarli o'sish asosan yangi AT-tizimi uchun QQS xarajatlari (1 mlrd. so'mdan ortiq), yangi sug'urta xarajatlari (IFC tomonidan talab qilgan 0,3 mlrd. so'mdan ortiq miqdorda faoliyatni firibgarlikdan sug'urtalash), AT va AX uchun yangi litsenziyalar, audit qiymati ("Katta to'rtlik" qIMTat auditorlik firmani jalb qilish), ijtimoiy/"yashil" obligatsiyalar bo'yicha maslahatlar, ichki va tashqi reytinglar xarajatlari va shu kabi boshqa xarajatlar bilan bog'liq.
- Amortizatsiya xarajatlari avvalgi 0,4 mlrd. so'mga nisbatan 1,7 mlrd. so'mni tashkil qilishi kutilmoqda, va bunday o'sish asosan GNI ning qIMTatbaho yangi AT-tizimini va xodimlar sonining ko'payishi munosabati bilan asosiy vositalarni (kompyuterlar, mebellar va h.k.) sotib olish bilan bog'liq;
- Kredit portfelining o'sishi rejalashtirilganligi hisobiga kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar bo'yicha xarajatlarni ko'paytirish rejalashtirilgan.
- Soliqlar to'langanidan keyingi foyda 72 mlrd. so'mga baholanmoqda va bu 2023-yildagi 28 milliard so'mga nisbatan ancha yuqori. Sof foydaning o'sishi asosan kredit-investitsiya faoliyatining faollashuvi bilan bog'liq.

### **3.3. Kredit berish**

2023-yilda Kompaniya IMTlarga, moliyalashtirish manbalariga qarab, ikkita asosiy mahsulotni taklif qilgan:

1-Kredit mahsuloti - OTB mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (2-liniya) OTB va O'zbekiston Respublikasi nomidan IMV va O'zIQMK o'rtasidagi Kredit shartnomasiga, shuningdek tijorat banklari bilan tuzilgan qayta moliyalash Shartnomalariga muvofiq. Ushbu mahsulot doirasida 1 088 mlrd. so'm (2023-yilning 9 oyi holatiga ko'ra 798 mlrd. so'm) miqdoridagi kreditlar O'zbekiston Markaziy bankining minus 2,5% yillik stavkasi va O'zIQMK ning plyus 1% yillik operatsion marjasi bo'yicha moliyalashtirildi. O'zbekiston Markaziy bankining asosiy stavkasi yil oxirigacha joriy 14% darajasida saqlanishini hisobga olgan holda, 1-Kredit mahsuloti uchun kreditlash stavkasi yiliga 12,5% ni tashkil qiladi.

2-Kredit mahsuloti - korporativ obligatsiyalarni yiliga 19% stavka bo'yicha chiqarish orqali yig'ilgan mablag'lar hisobiga moliyalashtirishdir. 2023-yilning to'rtinchi choragida Kompaniya tomonidan ushbu mahsulot uchun 140 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Kompaniyaning 1%-lik marjasini hisobga olgan holda, ushbu kredit mahsuloti banklar tomonidan 20% yillik stavka miqdorida taqdim etiladi.

Ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish uchun kapital bozori mablag'larini tijorat banklariga yo'naltirish doirasida ushbu mahsulot bo'yicha beriladigan ipoteka kreditlariga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida bir necha marta bozor o'rganishlari o'tkazildi va tijorat banklari bilan ushbu mablag'lar olinadigan banklarning dastlabki ro'yxatini aniqlash bo'yicha faol ishlar olib borildi. Natijada Kompaniya IMT ga 2-mahsulot bo'yicha kreditlarni muvaffaqiyatli taqdim etdi.

O'rtacha yillik 13% foiz stavkasi bilan, 2023-yilda O'zIQMK ning umumiy kredit portfeli 3132 milliard so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari, 2023-yilda O'zIQMK IMT ro'yxatiga ikkita yangi bank kirdi: Orient Finans Bank i InFinBank. Shunday qilib, bugungi kunda IMT ro'yxati 12 ta mahalliy bankdan iborat. Shuningdek, kompaniya 2024-yilda Ishtirokchi Moliya Muassasalari (IMT) ro'yxatiga yangi tijorat banklarini kiritish niyatida.

Kompaniya 2024-yilda moliyalashtirishning aralash sxemasi bo'yicha yangi mahsulotni taqdim etishni rejalashtirmoqda:

3-kredit mahsuloti – OTB ning imtiyozli resurslari va bozor resurslarining birikmasi orqali moliyalashtirish. 2024-yilda Kompaniya mavjud va yangi qabul qilingan tijorat banklariga 1634 milliard so'm miqdorida kredit berishni rejalashtirmoqda. Kompaniyaning 1%-lik marjasini hisobga olgan holda, kredit mahsuloti, bozor sharoitlariga qarab, banklarga taxminan 17-20% yillik stavka bilan taqdim etiladi.

2024-yil davomida Kompaniya tijorat banklaridan ularga IMV byudjet qarzi (ssuda) doirasida muddatidan avval qaytarib olishi sharti bilan taqdim etilgan 300 milliard so'mni qaytarib oladi. Ushbu mablag'lardan keyingi foydalanish to'g'risida "Investitsion operatsiyalar" bo'limida ta'riflangan.

Barcha taqdim etilgan va qoplangan kreditlarni hisobga olgan holda, O'zIQMK ning kredit portfeli o'sib, 2024-yilda qariyb 1130 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda.

Quyida prognoz davri davomida Kompaniyaning kredit portfelining harakati to'g'risidagi batafsil ma'lumot taqdim etilgan.

### 12-jadval. Kredit portfeli

Milliard so'm	2023	2024			
	4- chorak	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
	Bashorat	Reja	Reja	Reja	Reja
Kirayotgan qoldiq	2,702	3,142	3,360	3,605	3,947
Taqdim etishlar	545	418	250	342	330
Qoplanishlar	(105)	(200)	(5)	-	(5)
<b>Chiqayotgan qoldiq</b>	<b>3,142</b>	<b>3,360</b>	<b>3,605</b>	<b>3,947</b>	<b>4,272</b>
Ehtimoliy zararlar uchun zaxiralar	(1)	(2)	(2)	(3)	(5)
<b>Sof chiqish qoldig'i</b>	<b>3,141</b>	<b>3,258</b>	<b>3,603</b>	<b>3,944</b>	<b>4,267</b>

2024-yilda kredit operatsiyalaridan rejali daromadlar hajmi 513 milliard so'm miqdorda rejalashtirilgan (2023-yildagi prognoz bo'yicha 289 milliard so'm miqdorda rejalashtirilganiga nisbatan).

Kredit xatarlarini boshqarish va berilgan kreditlarni O'zbekiston Markaziy bankining talablariga muvofiq tasniflash maqsadida O'zIQMK kredit portfelini boshqarish bo'yicha monitoring qilish, o'z vaqtida javob berish va tegishli qarorlar qabul qilish uchun barcha zarur ma'lumotlarni olish maqsadida tijorat banklari bilan yaqindan hamkorlik olib boradi.

Kredit portfeli bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar past darajada prognoz qilinadi, chunki Kompaniyaning qarz oluvchilari puxtalik bilan tahlil qilingan va barqaror yirik va o'rta tijorat banklaridan iboratdir. O'zIQMK tomonidan hech qanday kechikishlar kutilmaydi. Ammo, garov sifatida olingan va muddati kechikkan bo'lishi mumkin bo'lgan

kichik miqdordagi asosiy ipoteka kreditlari mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu ipoteka kreditlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun kichik zaxiralar shakllantiriladi. Kompaniya garovlar portfelini doimiy ravishda kuzatib boradi va bunday kreditlarni almashtiradi.

### **3.4. Investitsion operatsiyalar**

2023-yil davomida O'zIQMK ning investitsiya portfeli 139 milliard so'mlik bank depozit vositalari va davlat qimmatli qog'ozlaridan iborat bo'ldi.

Bank depozitlariga investitsiyalar bozor sharoitlarini sinchkovlik bilan tahlil qilish asosida, jozibador foiz stavkalarini taklif qiluvchi ishonchli va to'lovga qodir bankni tanlash, shuningdek ushbu banklar uchun belgilangan ichki tavakkalchilik limitlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Investitsiya kiritish to'g'risidagi qarorlar kollegial ravishda, ya'ni birgalikda, bu masalani Kompaniyaning aktivlari va passivlarini boshqarish (KAPB) Qo'mitasining yig'ilishlarida ko'rib chiqish yo'li bilan qabul qilinadi.

2023-yilda bank depozitlarining daromadlilik taxminan 19% ni, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni kiritish daromadlilik esa taxminan 18% ni tashkil qildi.

Joriy investitsiyalarning tarkibi muddatli depozitlar uchun 67% va qimmatli qog'ozlar uchun 33% ni tashkil qiladi. Vositalarni diversifikatsiya qilish konsentratsiya xavfi, ehtimoliy likvidlik xatarlari va daromadlar o'rtasidagi eng yaxshi muvozanatni topish bilan bog'liq.

Kompaniya 2024-yilda ustav kapitalining kutilayotgan o'sishi hisobiga likvidlik ko'payishi tufayli investitsiya faoliyatini kengaytirish niyatida. Naqd pul tushumining bir qismini depozit vositalariga, qolgan qismini esa davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish rejalashtirilmoqda. Depozit mahsulotlari ham, davlat qimmatli qog'ozlari ham o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Banklarga kiritiladigan investitsiyalar yuqori daromad keltirishi va foizli daromadlarga soliq solinishi bilan bir paytda, davlat qimmatli qog'ozlari kamroq daromad keltiradi, ammo soliqlardan butunlay ozod etiladi. Ushbu ikkala vosita ham yuqori likvidlikka ega, chunki depozitlarni qaytarib olish mumkin, qimmatli qog'ozlar uchun esa ikkilamchi bozor mavjud.

Ushbu hujjatning "asosiy taxminlar" bo'limida tasvirlangan O'zbekiston Markaziy bankining asosiy stavkasining mumkin bo'lgan pasayishini hisobga olgan holda, rentabellik tarkibi pastroq darajada prognoz qilinmoqda – depozitlar bo'yicha 16-17% va qimmatli qog'ozlar bo'yicha 14-15% 2023-yilga nisbatan.

Ushbu hujjatning "Asosiy taxminlar" bo'limida ta'riflangan O'zbekiston Markaziy bankining asosiy stavkasining ehtimoliy pasayishini hisobga olgan holda, daromadlilik tarkibi pastroq darajada prognoz qilinmoqda – depozitlar bo'yicha 16-17% va qimmatli qog'ozlar bo'yicha 14-15% (2023 yilga nisbatan).

Quyida prognoz davrida Kompaniyaning investitsiya portfelining harakati to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

### 13-jadval. Investitsion portfel harakati

Milliard so‘m	2023	2024			
	4-chorak	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
	Bashorat	Reja	Reja	Reja	Reja
Muddatli depozitlar	95	401	412	419	439
Davlat qimmatli qog‘ozlari	48	50	50	468	468
<b>Jami investitsion portfel</b>	<b>143</b>	<b>451</b>	<b>462</b>	<b>887</b>	<b>907</b>

Investitsion faoliyat natijalariga ko‘ra Rahbariyat 2023-yildagi 25 milliard so‘mga nisbatan, 96 milliard so‘m miqdorda daromad olishni rejalashtirmoqda. Daromadlarning o‘ishi investitsiyalar balansining o‘ishi bilan bevosita bog‘liq, lekin 2024 yilda foiz stavkalarining pasayishi prognoz qilinmoqda.

Investitsiyalar to‘g‘risidagi qarorlar Kompaniyaning aktivlari va passivlarini boshqarish Qo‘mitasi yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilgan holda birgalikda qabul qilinadi. Shuningdek KAPB umumiy xatar limitlarini va banklarning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilishni hisobga olgan holda, banklararo operatsiyalar bo‘yicha limitlardan foydalanishni ko‘rib chiqadi.

#### 3.5. Moliyalashtirish – Qarz mablag‘lari

Kompaniya 2023 yil davomida OTB dan olingan kreditlariga (ikkita kredit liniyasi) va Iqtisodiyot va Moliya vazirligining byudjet kreditiga xizmat ko‘rsatdi.

OTB kreditlari qarzning asosiy summasini 2025-yilgacha qoplash uchun imtiyozli davrga ega, IMV ning 100 milliard so‘m miqdoridagi byudjet kreditini qoplash esa 2023 yilning dekabr oyiga rejalashtirilgan. Shu bilan birga, Prezidentning O‘zIQMK da kapitalni ko‘paytirish to‘g‘risidagi Farmoni e‘lon qilinganidan so‘ng, IMV byudjetining 300 milliard so‘m miqdoridagi kreditining butun summasi Kompaniyaning ustav kapitaliga kiritilishi mumkin. Shu munosabat bilan 2023-yil dekabr oyida asosiy qarzni to‘lashni to‘xtatib turish uchun byudjet krediti shartnomasini yangilash rejalashtirilgan.

O‘zIQMK tomonidan IFC kabi xalqaro rivojlanish institutlaridan milliy valyutadagi kredit resurslarini jalb qilish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. Bozor xatarlari va likvidlik xatarlarini jalb qilish va baholash, joriy bozor sharoitlarini hisobga olgan holda, narxlar shakllanishini baholash shartlari bo‘yicha muzokaralar olib borilmoqda. Kompaniya mablag‘larni yig‘ish uchun barcha sharoitlarni puxtalik bilan o‘rganmoqda.

IFC tomonidan O‘zIQMK faoliyatini tahlil qilish 2023-yil sentyabr oyida boshlangan va 2023 yil dekabr oyining boshlarida yakunlanishi kutilmoqda. Moliyalashtirishning dastlabki shartlari quyidagilardan iborat: (1) bir martalik qoplash bilan uch yillik moliyalashtirish; (2) yana uch yilga uzaytirish imkoniyati; (3) IFC va O‘zIQMK IMT ro‘yxatidagi tijorat banklarini moliyalashtirish; (4) mablag‘larning qiymati qabul qilish vaqtida bozor qiymatlariga qarab belgilanadi. Kompaniya mablag‘larni eng minimal narxda sotib olish uchun barcha sa‘y-harakatlarini ishga soladi. Dastlabki qabul qilish muddati – 2024-yil birinchi choragining oxiri.

Bundan tashqari, kompaniya OTB 2 kredit liniyasining foydalanilmagan qoldig‘ini olishda davom etadi. OTB va IFC mablag‘lari biznes-rejaning “Asosiy taxminlar” bo‘limida ta‘riflangan aralashtirish konsepsiyasi uchun ishlatiladi.

Quyida prognoz davrida Kompaniyaning kredit (qarz) mablag'lari harakati to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan.

#### 14-jadval. Kredit (qarz) mablag'lari harakati

Milliard so'm	2023	2024			
	4-chorak	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
	Bashorat	Reja	Reja	Reja	Reja
Kirayotgan qoldiq	2,702	3,002	3,220	3,265	3,607
Taqdim etish	400	418	45	342	75
Qoplash	(100)	(200)	-	-	-
<b>Chiqayotgan qoldiq</b>	<b>3,002</b>	<b>3,220</b>	<b>3,265</b>	<b>3,607</b>	<b>3,682</b>

#### 15-jadval. Kredit (qarz) mablag'larini olish

Milliard so'm	2023	2024			
	4-chorak	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
	Bashorat	Reja	Reja	Reja	Reja
<b>Kredit (qarz) olish</b>	<b>400</b>	<b>418</b>	<b>45</b>	<b>342</b>	<b>75</b>
- OTB krediti	400	100	45	80	75
- IFC krediti	-	318	-	262	-

Resurslarni jalb qilish faoliyati natijalariga ko'ra, Kompaniya 2023 yildagi 264 milliard so'mga nisbatan 428 milliard so'm miqdorida foizli xarajatlarni o'z zimtasiga olishni rejalashtirmoqda. Xarajatlarning ko'payishi qarz mablag'lari qoldig'ining ko'payishi bilan bevosita bog'liq.

### 3.6. Moliyashtirish - Obligatsiyalar

Kompaniya mahalliy moliya va boshqa tashkilotlar o'rtasida o'zining umumiy kapitali hajmida 140 milliard so'm miqdorida o'z tarixida birinchi ta'minlanmagan korporativ obligatsiyalarni chiqarish orqali resurslarni muvaffaqiyatli jalb qilmoqda.

Kompaniyaning korporativ obligatsiyalari bo'yicha foizli daromadlari O'zR Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2028 yil oxirigacha soliqdan ozod qilinadi. Bundan tashqari, Kompaniyaning banklar balansidagi ta'minlanmagan obligatsiyalari O'zbekiston Markaziy bankining 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Nizomiga muvofiq kapitalning yetarliligini hisoblash maqsadida 20%-li xatar darajasi bilan baholanadi.

2023-yilning iyul oyida Kompaniya moliyaviy sektorning barcha ishtirokchilariga yuqoridagi shartlar bo'yicha ta'minlanmagan korporativ obligatsiyalarga bo'lgan talabni o'rganish niyatida xatlar yubordi. 2023-yilning avgust oyida Kompaniya sektor vakillaridan taklif etilayotgan moliyaviy vositaga katta qiziqish bildirgan bir nechta xatlarni oldi. Shunday qilib, kapital bozorida Kompaniyaning qarz qimmatli qog'ozlariga bo'lgan potensial talab bozorda mavjud bo'lib, dastlabki talab hajmidan ortiq bo'ldi.

2023-yilning sentyabr oyida O'zIQMK quyidagi shartlar asosida qiymati 140 milliard so'mlik korporativ obligatsiyalarni muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tkazdi:

- Obligatsiyalarni chiqarish hajmi – 140 000 dona;
- Nominal qiymati – har biri 1 000 000 s’om;
- Umumiy hajmi –140 mlrd. sum;
- Muddati – 3 yil;
- Foiz stavkasi – yillik 19% miqdorda;
- Foizlarni to’lash – har yarim yilda;
- Joylashtirish turi – xususiy joylashtiruv;
- Joylashtirish muddati – 180 kun.

Rahbariyat qarz qimmatli qog’ozlarini chiqarish orqali kapital bozori resurslarini safarbar qilishni davom ettirishni rejalashtirmoqda. Bazar sharoitida korporativ obligatsiyalarning ikkita emissiyasining chiqarilishi va ijtimoiy/yashil obligatsiyalar bozordan past narxda chiqarilishi rejalashtirilgan. Potensial obunachilar sifatida mahalliy va xalqaro moliyaviy va nomoliyaviy muassasalar bo’lishi kutilmoqda. Lekin eng muhim jihati – bundan keyin ham obligatsiyalarni chiqarish dasturiga turtki beradigan aksiyadorlik kapitalini chiqarishdan iborat, chunki O’zIQMK qarz vositalarini chiqarish uchun o’z shaxsiy kapitalini butunlay ishlatib bo’lgan.

Emissiyaning taxminiy shartlari quyidagicha:

- Nominal qiymati – har biri 1 000 000 s’om;
- Umumiy hajmi – jamlama kapital doirasida;
- Muddati – 3 yil;
- Foiz stavkasi – bazar sharoitlaridan kelib chiqqan holda;
- Foiz to’lovi – har yarim yilda;
- Joylashtirish turi – xususiy va ommaviy joylashtirish;
- Joylashtirish muddati – 180–365 kun.

Kapital bozorining barcha resurslari binos-rejaning “Muhim taxminlar” bo’limida ta’riflangan aralashtirish konsepsiyasi uchun ishlatiladi.

Kompaniya ijtimoiy va yashil obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish bo’yicha katta tajribaga ega Ostona xalqaro Moliya markazi (AXMM) bilan muzokaralar olib bormoqda. Hamkorlik olib borish bo’yicha muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlangan taqdirda, O’zIQMK Kompaniyaning ichki siyosatini xalqaro miqyosda tan olingan eng yaxshi standartlarga muvofiqlashtirishga yordam berish uchun AXMM ni jalb qilishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, maslahatchi O’zIQMK jamoasiga marketing, hisobot berish va ijtimoiy/yashil obligatsiyalarni joylashtirish masalalari bo’yicha maslahat beradi. Dastlabki emissiya kichik bo’lib, 50 milliard so’mdan oshmaydi.

Quyida Kompaniya tomonidan prognoz davrida chiqarilgan obligatsiyalar harakati haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

**16-jadval. Obligatsiyalar harakati**

Milliard so’m	2023	2024			
	4-chorak	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
	Bashorat	Reja	Reja	Reja	Reja
Boshlanish holatiga qoldiq	-	140	140	340	340
Chiqarish	140	-	200	-	250

Qoplash	-	-	-	-	-
<b>Yakuniy holatiga qoldiq</b>	<b>140</b>	<b>140</b>	<b>340</b>	<b>340</b>	<b>590</b>

Obligatsiyalarni chiqarish faoliyati natijalariga ko'ra, kompaniya 2023-yildagi 5 milliard so'mga nisbatan 65 milliard so'm miqdorida foizli xarajatlarni o'z zimtasiga olishni rejalashtirmoqda. Xarajatlarning ko'payishi Kompaniya tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari qoldig'ining ko'payishi bilan bevosita bog'liq.

### **3.7. Kapital**

O'zIQMK mavjud aksiyadorlar va qayta moliyalash platformasiga qo'shilishdan manfaatdor bo'lgan boshqa banklardan qo'shimcha aksiyadorlik kapitalni jalb qilishni rejalashtirmoqda. Bu Kompaniyaga kapitalni qariyb 1 trillion so'mgacha oshirishga yordam beradi. Aniq miqdor va muddatlar likvidlikning mavjudligi va davlatning yakuniy qaroriga qarab o'zgarishi mumkin. Kapital ko'paygandan keyin Kompaniya o'z kapitali doirasida qo'shimcha obligatsiyalar chiqarishi va XMI resurslarini jalb qilishi mumkin bo'ladi.

Ustav kapitalini oshirish va aksiyalarning yangi turkumini joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni 2024-yilning birinchi yarmi oxiriga qadar yakunlash rejalashtirilgan.

Shuningdek, Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishining qarori bilan taqsimlanmagan foyda va zaxira kapitali kabi kapital qismlarini o'zgartirish mumkin. Kompaniyaning 2023-yil yildagi faoliyati yakunlariga ko'ra olingan sof foydaning 5% ni, shuningdek aksiyadorlarga dividendlarni naqd pul yoki qo'shimcha ravishda chiqarilgan aksiyalar bilan to'lash kutilmoqda.

### **3.8. Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish**

Kreditlash, investitsiyalar, qarzlar va kapital bo'yicha prognozlar asosida Kompaniya rahbariyati aktivlar va majburiyatlar harakati bo'yicha prognozlarni tayyorladi, ular byudjetga to'g'ridan-to'g'ri Kompaniyaning moliyaviy natijalariga olib keladigan tarzda kiritiladi. Shuningdek prognoz likvidlik xavfini boshqarish uchun ham amalga oshirilgan.

Dastlab, kompaniya 2024-yil uchun mo'ljallangan o'zining kredit rejalarini bajarish uchun 450 milliard so'm miqdorida korporativ obligatsiyalar chiqarishi va joylashtirishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Biroq, agar kompaniyaning qarz qimmatli qog'ozlariga talab bo'lmasa, O'zIQMK IFC dan 45 mln. AQSh dollarigacha (620 milliard so'm) mablag'ni jalb qilishni rejalashtirmoqda. Bundan tashqari, Kompaniya qo'shimcha resurslarni jalb qilish uchun boshqa XMI lari bilan muzokaralar olib bormoqda.

Davlat tomonidan ma'qullangan holda, O'zIQMK 2024-yilda qayta moliyalashtirish mexanizmini qo'llagan holda, IMV resurslarining tarqatuvchisiga aylanishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan bo'lsa, ushbu rejalar 2024-yil uchun qayta ko'rib chiqilgan byudjetda aks ettiriladi.

Kompaniya rahbariyati Kompaniyani qo'shimcha moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash va mablag'lar oqimidagi uzilishlarning oldini olishga harakat qiladi.

Quyida 2024-yilda aktivlar va majburiyatlar passivlarning prognoz qilinayotgan harakati to'g'risida qisqacha ma'lumot keltirilgan:

### 17-jadval. Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish

Milliard so'm	2023	2024			
	4 chorak	11chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
	Bashorat	Reja	Reja	Reja	Reja
<b>AKTIVLAR</b>					
<b>Investitsiyalar</b>					
Muddatli depozitlar	95	401	412	419	439
Davlat qimmatli qog'ozlari	48	50	50	468	468
<b>Chiqayotgan qoldiq</b>	<b>143</b>	<b>451</b>	<b>462</b>	<b>887</b>	<b>907</b>
<b>Kreditlash</b>					
Kirayotgan qoldiq	2,702	3,142	3,360	3,605	3,947
Taqdim etish	545	418	250	342	330
Qoplash	(105)	(200)	(5)	-	(5)
<b>Chiqayotgan qoldiq</b>	<b>3,142</b>	<b>3,360</b>	<b>3,605</b>	<b>3,947</b>	<b>4,272</b>
<b>MAJBURIYATLAR</b>					
<b>Qarz mablag'lar</b>					
Kirayotgan qoldiq	2,702	3,002	3,220	3,265	3,607
Taqdim etish	400	418	45	342	75
Qoplash	(100)	(200)	-	-	-
<b>Chiqayotgan qoldiq</b>	<b>3,002</b>	<b>3,220</b>	<b>3,265</b>	<b>3,607</b>	<b>3,682</b>
<b>Chiqarilgan obligatsiyalar</b>					
Kirayotgan qoldiq	-	140	140	340	340
Chiqarish	140	-	200	-	250
Qoplash	-	-	-	-	-
<b>Chiqayotgan qoldiq</b>	<b>140</b>	<b>140</b>	<b>340</b>	<b>340</b>	<b>590</b>

### 3.9. Kadrlarni boshqarish

2022-yil oxirida O'zIQMK tomonidan xodimlar haqini to'lash va rag'batlantirishning yangi tizimini joriy etildi, unga ko'ra jamoa a'zolari har chorakda ishlashning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi. Bundan tashqari, yangi rag'batlantirish tizimi sport klublariga abonement qiymatini va o'z mutaxassisligi bo'yicha o'qitish xarajatlarini qoplashni o'z ichiga oladi, shuningdek xodimlarni ixtiyoriy tibbiy sug'urtalashning yangi tizimi joriy etildi.

Qiyinchiliklarga qaramay, Kompaniya ichki auditor, komplaens menejeri, kapital bozorining yangi tahlilchisi, buxgalter va shu kabi xodimlarni asta-sekin jalb qilish orqali xodimlar sonini ko'paytirishga muvaffaq bo'ldi. 2023-yilda xodimlarning o'rtacha soni 19 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil uchun byudjetda xodimlarning o'rtacha soni 29 kishidan iborat bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Quyida 2023 va 2024-yillar oxiriga rejalashtirilgan xodimlar soni to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

### 18-jadval. Xodimlar soni

Lavozimi	2022	2023	2024
	Fakt	Bashorat	Reja
Bosh ijrochi direktor	1	1	1
Bosh ijrochi direktor o'rinbosari (CFO va COO)	-	2	2
Bo'linmalar rahbarlari	3	3	4
Boshqa jamoa a'zolari	10	21	22
<b>Jami</b>	<b>14</b>	<b>26</b>	<b>29</b>

2024-yilda rahbariyat xodimlarning ish haqini umumiy inflyatsiya darajasiga indeksatsiya qilishni ham byudjetga kiritdi. Bu 2022-yil boshidan beri iste'mol narxlari indeksining sezilarli o'sishini hisobga olgan holda zaruriy choradir.

Bundan tashqari, Kompaniya xodimlar ish haqini to'lash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini faol o'rganmoqda. Tibbiy sug'urta tizimini kengaytirish, yillik mukofotlar darajasini oshirish va jamoaviy faoliyatning boshqa turlari yangi dastlabki rag'batlar bo'ladi. Rahbariyat ushbu chora-tadbirlar malakali kadrlarni jalb qilish va saqlashga yordam beradi, deb hisoblaydi.

### IV BO'LIM. OPERATSION XARAJATLAR

Operatsiyalar hajmining ortishi, xodimlar sonining ko'payishi, ofis maydonlarining kengayishi, AT va axborot xavfsizligi infratuzilmasining yaxshilanishi, inflyatsiya va boshqa omillar hisobiga Kompaniyaning operatsion xarajatlari asta-sekin ortib bormoqda.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, 2023-yildagi 26,3% bilan solishtirganda, 2024-yilda operatsion xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbati 25,3% ni tashkil qiladi.

Rahbariyat moliyaviy jihatdan samarali bo'lishi va O'zIQMK rentabelligini oshirish maqsadida o'z operatsion xarajatlari ustidan qat'iy nazoratni amalga oshiradi.

Quyida prognoz qilinayotgan operatsion xarajatlar to'g'risida asosiy ma'lumotlar keltirilgan.

### 19-jadval. Operatsion xarajatlar

QISMLAR (milliard so'm)	2023	2024	Farq
	Prognoz	Reja	%
Xodimlar uchun xarajatlar	8.5	16.8	97%
Ijara va xizmat ko'rsatish	0.9	1.3	41%
Xizmat safari xarajatlari va transport xarajatlari	0.1	0.5	705%
Ma'muriy xarajatlar	0.1	0.2	90%
Vakillik xarajatlari va xayriya	0.0	1.0	1,928%
Amortizatsiya uchun xarajatlar	0.4	1.7	348%
Sug'urta, soliqlar va boshqa xarajatlar	1.3	6.5	402%
<b>Jami operatsion xarajatlar</b>	<b>11.4</b>	<b>28.0</b>	<b>147%</b>

### V BO'LIM. KAPITAL XARAJATLAR

O'zIQMK AT-tizimini rivojlantirish Kompaniyaning texnik infratuzilmani yaratish bo'yicha eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun Frankfurt moliya va menejment maktabining maslahatchilari bilan birgalikda O'zIQMK da axborot texnologiyalarini rivojlantirish Strategiyasi ishlab chiqildi.

AT ni rivojlantirish strategiyasi Kompaniyaning axborot, tahlil va tarkibiy yechimlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ushbu strategiya Kompaniyaning AT bo'yicha texnik hujjatlari va O'zbekiston Markaziy bankining axborot xavfsizligi (AX) bo'yicha minimal talablariga asoslanadi.

Kuzatuv Kengashi O'zIQMK jarayonlarini avtomatlashtirish rejasini tasdiqladi. 2023 yilda xaridlar taomilini (tender) o'tkazish, asosiy hisobga olish AT-tizimining ishlab chiquvchisini (etkazib beruvchisini) tanlash rejalashtirilgan edi.

2023-yilning birinchi choragida Kompaniya Kiberxavfsizlik markazi va Davlat ekspertiza markazidan yangi asosiy hisobga olish AT-tizimini sotib olish uchun rozilik oldi. Keyinchalik O'zIQMK qonun hujjatlari talablariga muvofiq tender e'lon qildi. Tender jarayoni 2023-yilning ikkinchi choragida yakunlandi va Kompaniya AT-tizimining yetkazib beruvchisi sifatida «GNI Software» Ozarbayjon kompaniyasini tanladi. 2023-yilning iyul oyida yetkazib beruvchi bilan shartnoma imzolandi. Bosh direktor hisobga olish tizimini ishlab chiqish jarayonini boshlash uchun tegishli almashtirishlar bilan ishchi guruh tuzdi. 2023-yilning avgust oyida GNI jamoasi O'zIQMK biznes jarayonlarini muhokama qilish va texnik topshiriqlarni ishlab chiqishni boshlash uchun ikki hafta davomida Toshkentga tashrif qildi. Hozirgi vaqtda vendor tomonidan muhokamaning yakuniy bosqichida bo'lgan texnik topshiriqlar loyahasini ishlab chiqildi. Bundan tashqari, O'zIQMK AT-tizimini joriy etishni muvofiqlashtiruvchi malakali biznes-tahlilchini jalb qildi.

AT-tizimi va boshqa litsenziyalarni ishlab chiqish va joriy etishga kiritish rejalashtirilgan investitsiyalar hajmi, QQS ni hisobga olmagan holda, 8,6 milliard so'mga baholanmoqda. Ammo, 2023-yildagi to'lovlarga qaramay, hisobga olish tizimi bilan bog'liq nomoddiy aktivlar 2024-yilning 1-choragida balansda ekanligini qayd etish rejalashtirilgan.

1 356 mlrd. so'm miqdordagi boshqa kapital xarajatlar O'zIQMK AT-tizimi uchun server uskunalari, personal kompyuterlarni, kommunikatsiya uskunalari, mebel va jihozlar, shuningdek boshqa ofis uskunalari xarid qilish bilan bog'liq.

2024 yilda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga kiritiladigan investitsiyalarning pullik oqimi quyidagi jadvalda keltirilgan:

**20-jadval. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga investitsiyalar**

Toifasi (milliard so'm)	2023	2024 yildagi investitsiyalar	2024
	Prognoz		Reja
Ijaraga olingan mulkka investitsiyalar	31.6	-	31.6
Mebel va butlovchi qismlar	369.5	210.0	579.5
Kompyuterlar, AT va ofis uskunalari	785.9	546.0	1,331.9
Xizmat avtomobillari	325.0	-	325.0
Nomoddiy aktivlar	143.8	9,173.2	9,317.0
To'plangan amortizatsiya	(821.1)	(1,742.5)	(2,563.6)
<b>Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, netto</b>	<b>834.7</b>	<b>8,218.7</b>	<b>9,021.4</b>

## 2024 yil uchun Moliyaviy Holat to'g'risidagi hisobot

QISMLAR (milliard so'm)	2024 y. 1 chorak	2024 y. 2 chorak	2024 y. 3 chorak	2024 y. 4 chorak
	Reja	Reja	Reja	Reja
<b>AKTIVLAR</b>				
Banklardagi mablag'lar, depozitlar va investitsiyalar	452	469	890	909
Qayta moliyalashtirish uchun kreditlar	3,358	3,602	3,943	4,267
To'lash uchun hisoblangan foizlar	122	122	198	178
Boshqa aktivlar	14	13	15	15
<b>JAMI AKTIVLAR</b>	<b>3,947</b>	<b>4,207</b>	<b>5,047</b>	<b>5,370</b>
<b>MAJBURIYATLAR</b>				
Olingan kreditlar	3,220	3,265	3,607	3,682
Chiqarilgan obligatsiyalar	140	340	340	590
To'lash uchun hisoblangan foizlar	118	119	176	148
Boshqa majburiyatlar	1	1	1	1
<b>JAMI MAJBURIYATLAR</b>	<b>3,478</b>	<b>3,725</b>	<b>4,123</b>	<b>4,420</b>
KAPITAL	468	482	923	949
<b>JAMI KAPITAL VA MAJBURIYATLAR</b>	<b>3,947</b>	<b>4,207</b>	<b>5,047</b>	<b>5,370</b>

## Daromadlar va Zararlar to'g'risidagi hisobot (kumulyativ ravishda)

QISMLAR (milliard so'm)	2024 y. 1-chorak	2024 y. 2-chorak	2024 y. 3-chorak	2024 y. 4-chorak
	Reja	Reja	Reja	Reja
Foizli daromadlar	112	254	423	609
Foizli xarajatlar	(97)	(214)	(346)	(493)
<b>Sof foizli daromadlar</b>	<b>15</b>	<b>39</b>	<b>77</b>	<b>116</b>
Sof nofoizli daromadlar/(zararlar)	(1)	(2)	(4)	(5)
<b>Operatsion daromadlar</b>	<b>14</b>	<b>37</b>	<b>73</b>	<b>111</b>
Operatsion xarajatlar	(6)	(13)	(19)	(28)
<b>Zaxiragacha bo'lgan foyda</b>	<b>8</b>	<b>25</b>	<b>54</b>	<b>83</b>
Ehtimoliy zararlar uchun zaxiralar	(1)	(2)	(3)	(3)
<b>Soliqlargacha bo'lgan foyda</b>	<b>7</b>	<b>23</b>	<b>51</b>	<b>79</b>
Daromad solig'i	(1)	(3)	(5)	(7)
<b>Sof foyda</b>	<b>6</b>	<b>20</b>	<b>46</b>	<b>72</b>

## Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari

№	Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari	Manba	Me'yor	1ch . 2024 y.	2 ch. 2024 y.	3 ch. 2024 y.	4 ch. 2024 y.
				Reja	Reja	Reja	Reja
1	Sof foyda (zarar) prognozining bajarilishi	VMQ* №207	15	6,011,911	19,956,328	46,442,783	72,313,304
2	Aktivlarning o'rtacha daromadliligi (ROAA)	VMQ* №207	5	0.18%	0.59%	1.31%	1.95%
3	Kapitalning o'rtacha daromadliligi (ROAE)	VMQ* №207	5	2.13%	7.06%	9.23%	14.37%
4	Xarajatlarning daromadga nisbati (CIR)	VMQ* №207	5	45.57%	33.87%	25.50%	25.31%
5	Sof foiz marjasi (NIM)	Ichki	5	0.43%	1.07%	1.89%	2.74%
6	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR)	MB** №3219	10	> 100%	> 100%	> 100%	> 100%
7	Likvidlikni qoplash me'yori (LCR)	MB** №3219	10	> 100%	> 100%	> 100%	> 100%
8	Leveraj	MB** №3219	10	> 3%	> 3%	> 3%	> 3%
9	Kapital yetarlilik me'yori (CAR)	MB** №3219	15	> 10%	> 10%	> 10%	> 10%
10	Eng yirik konsentratsiya miqdori	MB** №3219	10	< 30%	< 30%	< 30%	< 30%
11	Muammoli kreditlar (NPL)	Ichki	10	< 5%	< 5%	< 5%	< 5%
			<b>100</b>				

\* Vazirlar mahkamasi qarori

\*\* Markaziy bank boshqaruvi qarori